XALQ DEPUTATLARI QO‘SHKO‘PIR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 7-avgust VI-100-109-12-172-K/24 Qo‘shko‘pir tumani

Tumandagi ayrim qabristonlarning nomlarini o‘zgartirish va ayrimlarini qayta nomlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasiga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 18-martdagi 19-824-son murojaatnomasi va unda qayd etilgan tuman hokimligining ayrim qabriston nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi takliflari Respublika toponomika komissiyasida ko‘rib chiqilib, ekspertiza xulosasi kelganligini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 18-martdagi 143-son bayonnomasi va tuman hokimining qabriston nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.
2. Tumanda nomlari o‘zgaradigan qabristonlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Tuman statistika bo‘limi (A.Sultanov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (Y.Matkarimov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.
4. Mazkur qaror “Hayot ko‘zgusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.
5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Erkinov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



AXMEDOV SHUXRAT
KURVONDURDIYEVICH

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tumani
Kengashining
2024-yil 7-avgustdagi
VI-100-109-12-172-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qo‘shko‘pir tumanida nomlari o‘zgartiriladigan, qayta nomlanadigan qabristonlar
RO‘YXATI

№	Geografik obyekt turi	Geografik obyekt nomi	Geografik obyekt joylashgan manzil	Izoh
1	Qabriston	Yusuf Hoji Shayx bobo	Yangilik mahallasi	Qoraqalpog‘istondagi ziyoratgohlardan biri bo‘lib, Hakim otaning o‘g‘li hisoblanadi. Ko‘p yillardan buyon shu hududdagi insonlarga yaxshiliklar qilib, aholining yaqin kishisiga aylangan. Shu qabristonda ko‘p yillar Shayxlik ham qilgan.
2	Qabriston	Bukri Aziz Zikri Aziz	O‘rta qishloq mahallasi	O‘z nomuslarini asrash uchun yer yutishini iltijo qilgan opa-singillar hisoblanadi. Ushbu qabristonning yer yutgan joyi ko‘p yillardan buyon aholining ziyorat qiladigan muborak zaminiga aylangan
3	Qabriston	G‘o‘chchok bobo	Sherobod mahallasi	Qadimgi Shayxlardan Ismamit otaning tuyalarini ariqdan o‘z qo‘llarida bir urinishda ko‘tarib o‘tirib qo‘ygan pahlavon yigit hisoblanadi. Uning bu ishini ko‘rgan ustozi unga “G‘o‘ch yigit”, ya’ni baquvvat deb ataydi. Qabriston shu ariq o‘tgan joyda joylashganligi sababli G‘uchchok bobo deb yuritiladi.
4	Qabriston	Zoyirjon eshon bobo	Bahoriston mahallasi	Ko‘p yillar davomida shu qabristonda shayxlik qilgan Eshonlarimizning avlodlaridan hisoblanadi.

5	Qabriston	Bobojon eshon bobo	Dovud mahallasi	Payg‘ambarimiz Muhammad S.A.Vning 35-avlodi hisoblanadi. Shu hududda yashab o‘tgan shayxlardan biri hisoblanadi.